

**SHEKSPIR DRAMALARIDAGI LEKSIK KALAMBURLARINING  
O'ZIGA XOSLIGI**

*Mizrabova Jeren*

*O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati*

*Buxoro davlat universiteti f.f.f.d.(PhD), dotsenti*

*Tel: +998907122555*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Uilyam Shekspir uslubidagi leksik kalamburning o'ziga xos hususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Uilyam Shekspir o'z dramalarida kalambur va so'z o'yinidan keng foydalangan.

**Kalit so'zlar.** Shekspir, kalambur, tahlil, omonim, polisemiya, antonimiya, omoforma, fonetik hususiyatlar, asliyat matni.

**Abstract.** This article discusses the originality of lexical puns in the style of William Shakespeare. William Shakespeare used puns and wordplay extensively in his plays.

**Key words.** Shakespeare, pun, analysis, homonym, polysemy, antonymy, homoform, phonetic properties, original text.

**Аннотация.** В данной статье ведутся рассуждения о своеобразии лексических каламбуров в стиле Уильяма Шекспира. Уильям Шекспир широко использовал каламбур и игру слов в своих драмах.

**Ключевые слова.** Шекспир, каламбур, анализ, омоним, полисемия, антонимия, омоформа, фонетические свойства, текст оригинала.

“Kalambur” termini va “so'z o'yini” tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa-da aslida ular sinonimik munosabatdagi xodisa emasdir. Odatda, so'z o'yini yoki so'zlar juftligi masalan, omonimlar, polosemik yoki paronimik munosabatlari o'yini asosida qurilishi kuzatiladi. Kalamburning tarkibiy tuzilishi esa faqatgina so'zlardan tashkil topib qolmay balki mazkur stilistik vositaning murakkab tabiatini o'rganish ancha keng fonetik-grafik shuningdek, semantik yondashuvlarini taqozo etadi. Masalan, kalambur tarkibidagi ikki bir-biriga semantik jihatdan ziddiyatli munosobatdagi qismlarining bittasi ba'zida kontekstda oshkora qo'llanilmasligi yoki matn tagmatnida muallifning ishorasi ko'rinishida kelishi ham mumkin.

“Qirol Lir” asari davomidagi Frantsiya qirolining qizg'in nutqidan so'ng Kordeliya Regana va Gonerilyalarning qanchalik yovuz va vijdonsiz yolg'onchi ekanliklarini bilsa-da, ular bilan istar-istamas noilojlikdan arang hayirlashib o'z opalaridan otasiga yaxshi qarab g'amho'rlik qilishlarini iltimos qiladi. Shunda yuzsiz opalari Kordeliyaiga, ularga aql o'rgatgandan ko'ra singlisiga achinganidan o'ylanayotgan kuyovning ko'nglini olishining tashvishini qilishni aytib uni masxara

qiladilar. Regana va Gonerilya Kordeliyaning itoatsizligi va tersligi uning sepsiz kelin sifatida quvg‘in etilishga va undan yuz o‘girishga arziydigan sabab deb biladilar. Kordeliya esa vijdotsiz opalrining fitnalari vaqti kelib baribir fosh bo‘lishini aytib ular bilan hayirlashadi:

REGAN

Prescribe not us our duties.

GONERIL

Let your study

Be to content your lord, who hath received you

At fortune's alms. You have obedience scanted,

And well are worth the want that you have wanted. [1- el. man.]

(“King Lear” by W.Shakespeare. Act I. Scene I)

Регана

Просим не учить.

Гонерилья

Учись сама, как угождать супругу,

Который взял из милости тебя.

За спор с отцом судьба тебя с годами

В замужестве накажет неладами . (B.Pasternak tarjimasini) [2- el.man.]

Asliyatda U. Shekspiring ohongdoshlik qolibiga solingan “the want that you have wanted” kabi omonimlarining alliteratsiyasida qurilgan juda murakkab kalamburi kelitirilgan. Shuningdek, Shekspir matnida qatnashgan kalamburining so‘zma-so‘z tarjimasini keltiramiz:

“You have obedience scanted, And well are worth the want that you have wanted.”

“Sen otamizga itoatkor farzand bo‘la olmading, va o‘zingda seva olish hissiyotining bo‘lmaganligi (tanqisligi, yetishmovchiligi) sabab sevilish huquqidan mahrum etilishga arziysan (mahkumsan). (J.M.)

Ya'ni, Gonerilya nutqidagi kalamburida - otamizga qanday muddao bilan nomunosib mehr ko‘rsatgan bo‘lsang turmush o‘rtog‘ingdan ham xuddi shunday tarzdagi nomaqbul muhabbat olishga arziysan yoki, sen otangni sevishga qodir emas ekansan shuning uchun sevilishga ham arzimaysan yohud qilmishiga ko‘ra jazo olasan kabi mazmunlari faollashgan.

Binobarin, asliyat kalamburida birinchi o‘rinda kelgan “the want” seva olish hissiyotining bo‘lmaganligi (tanqisligi, yetishmovchiligi) kabi mazmuniga keyingi omonim esa “have wanted” sevilish huquqidan mahrum etilishga arziysan (mahkumsan) kabi implitsit va g‘ayrilisoniy mazmunlar qarama-qarshi qo‘yilgan.

Asar davomida Gonerilya o‘z xokimiyatidagi ishlar ko‘ngildagidek ketmayotgan

bir davrda qorovul yoniga yetib kelganda masxaraboziga qo‘pol munosabat ko‘rsatganligi uchun shundoq ham saroyda nomaqbul mehmon bo‘lgan Lir tomonidan soqchilaridan birini qattiq savalaganini eshitib malikaning xunobi buziladi. Gonerilya xizmatkori Osvaldga otasi ovdan qaytganida uni kutib olmasligi va qirolga biroz qattiqqo‘llik qilib Lirning nozik masalani anglashi va iste‘foga chiqqanligini eslatib qo‘ymoqchi bo‘ladi. Osvald ovdan kaytayotgan qirol va askarlarning ovozlari eshitganini aytganida Gonerilya xizmatkorlariga otasining kirib kelishida Lirga mutlaq etiborsiz bo‘lishi va unga iltifotlar ko‘rsatmasligi buyuradi. Shuningdek, agarda Lir bu yerdagi sharoitlardan mamnun bo‘lmasa Reganing saroyiga ketishi mumkinligi va qirolning ikkinchi qizi ham avvalgidek otasining ahmoqona injiqliklariga toqat qilmasligiga amin ekanligini aytadi. Keyingi gapida ham Gonerilya, qariganda odam yana yosh bolaga aylanishi va otasini tartibga chaqirish har bolani boshqarishdek oson vazifa ekanligini aytganda nutqida kinoyaviy antonimik munosabatlari, shuningdek, “used” va “abused” kabi so‘z o‘yinida qurilgan kalamburini keltiradi:

GONERIL

Idle old man,

That still would manage those authorities

That he hath given away! Now, by my life,

Old fools are babes again; and must be used

With cheques as flatteries,--when they are seen abused.

Remember what I tell you . [1- el.man.]

(William Shakespeare King Lear, Act I, Scene 3.)

Гонерилья

Сам отдал власть, а хочет управлять

По-прежнему! Нет, старики — как дети,

И требуется строгости урок,

Когда добро и ласка им не впрок.

Запомни это . (B.Pasternak tarjmasi) [2- el.man.]

Asliyatdan misol sifatida keltirilgan Gonerilya nutqining so‘zma-so‘z tarjimasini keltiraimz:

O‘sha esi yuq chol, allaqachon o‘z ixtiyori bilan topshirgan xuquqiga hali ham egalik qilaman deb o‘ylayapti! Hayotim bilan ont ichamanki, esi past chollar qaytadan yosh bolaga aylanadilar, va sizlar xushomad qilishning o‘rniga ularni tartibga chaqiring – ayniqsa ular ro‘yirot to‘polon qilganlarida. Mening gaplarimini unutma. (J.M.)

Sal oldin xokimiyatga erishmoqlik uchun Lirga tilyog‘lamalik qilib turgan Gonerilya endi niyati amalga oshganida otasi unga malol kelgan va qirolning hali ham o‘zini xukumdordek tutishi malikaning asabiga tegayotgan edi. Goneril’ya qirolning adabini berish uchun otasini barcha xushomadlardan mahrum etib endi zamonlar

o‘zgarganini o‘qtirmoqchi bo‘ladi. Asliyatdan keltirilgan misoldagi:

Old fools are babes again; and must be used

With cheques as flatteries,- when they are seen abused.

Bu yerda “used” so‘zi “muomala qilmoq, murojaat etmoq, davolamoq”, “checks” leksik birligi esa “jilov, yugan, jilovda yoki itoatda tutmoq, qattiqqo‘llik qilmoq, tanbeh, koyish” va “abused” birligi “qattiq ta'siriga tushmoq, suiste'mol qilmoq” kabi mazmunlarga ega. Ya'ni, yuqorida misol sifatida keltirilgan asliyat kalamburida “qari odamlar xushomadlar ta'siriga tushganlarida (suiste'mol qilganlarida) ularga darhol tanbeh berish, qattiqqo‘llik qilib koyish va jilovda tutmoq lozim” kabi mazmun kelib chiqadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. <https://shakespeare.folger.edu/shakespeares-works/king-lear/entire-play/>
2. <https://predanie.ru/book/218131-korol-lir-per-boris-leonidovich-pasternak/>
3. Сковородников А.П. Игра как приём текстопорождения. Красноярск: Мир. 2010. 341 с.